



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.6)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 27.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF



**Qoriyev Mirzohid Rustamjonovich**

Namangan davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi,  
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mahammadjanova Rayhona Malikjon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti  
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari  
yo'nalishi iqtidorli talabasi

**Uzbekistan**

### NAMANGAN VILOYATI ATMOSFERA XAVOSINI MUHOFAZA QILISH IMKONIYATLARI

**Abstract:** This article provides information on the main factors causing atmospheric air pollution in Namangan region and the negative impact of harmful gases in the air on agriculture and human health. Also, suggestions and recommendations were given regarding measures to protect atmospheric air.

**Key words:** atmospheric air, plants and factories, vehicles, carbon oxides (CO, CO<sub>2</sub>), sulfur oxides (SO<sub>2</sub>, SO<sub>3</sub>), aerosols.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo'layotgan asosiy omillar hamda havo tarkibida tobora ortib borayotgan zararli gazlarning qishloq xo'jaligi va inson salomatligiga salbiy ta'siri to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, atmosfera havosini muhofaza qilish chora-tadbirlar xususida taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** atmosfera havosi, zavod va fabrikalar, transport vositalari, uglerod oksidlari (CO, CO<sub>2</sub>), oltingugurt oksidlari (SO<sub>2</sub>, SO<sub>3</sub>), aerozollar.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об основных факторах, вызывающих загрязнение атмосферного воздуха Наманганской области и негативное влияние вредных газов воздуха на

сельское хозяйство и здоровье человека. Также были даны предложения и рекомендации по мерам по охране атмосферного воздуха.

**Ключевые слова:** атмосферный воздух, заводы и фабрики, транспортные средства, оксиды углерода (CO, CO<sub>2</sub>), оксиды серы (SO<sub>2</sub>, SO<sub>3</sub>), аэрозоли.

**Language:** English

**Citation:** Qoriyev, M., & Mahammadjanova, R. (2024). NAMANGAN PROVINCE ATMOSPHERIC AIR PROTECTION POSSIBILITIES. Universal International Scientific Journal, 1(6), 36–40. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1105>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13889537>

**KIRISH.** Bugungi kunda atmosfera havosining ifloslanib borishi global muammoga aylanib ulgurdi. Atmosfera havosining ifloslanishi – bu atmosferada odamlar va boshqa tirik mavjudotlarning sog'lig'iga zarar yetkazadigan, iqlimga ta'sir ko'rsatadigan hamda materiallarning (moddiy jismlarning) o'zgarishiga olib keladigan moddalarning mavjudligidir [1]. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ularga har xil gazlar (ammiak, uglerod oksidi, oltingugurt dioksidi, azot oksidi, metan va b.), zarrachalar (ham organik, ham noorganik) va biologik molekulalar kabilar misol bo'ladi.

Ma'lumki, havoning ifloslanishi insonlarda turli kasalliklarni, jumladan, nafas yo'llari infeksiyalari, yurak kasalliklari, qon tomirlari va o'pka saratonini keltirib chiqarishi [4] va hatto o'limga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, u hayvonlar va qishloq xo'jalik ekinlari kabi boshqa tirik organizmlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuning uchun atmosfera havosining ifloslanishini doimo nazorat qilib borish hamda atmosfera havosining ifloslanishini oldini olishga va muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

**ASOSIY QISM.** Atmosfera havosining ifloslanishi O'zbekistonda, jumladan, Namangan viloyatining ayrim hududlarida ham jiddiy ekologik muammolardan biri sanaladi.

Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishiga zavod-fabrikalardan, maishiy korxonalar va transport texnika vositalaridan

chiqayotgan har xil kimyoviy chiqindilar va zaharli gazlar sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari aholi honadonlarining isitish pechlaridan chiqayotgan, shuningdek, ekin dalalarida qolib ketgan o'simlik poyalarini, to'plab qo'yilgan barg-hazonlarni aqlsizlarcha yoqib yuborilishi natijasida hosil bo'ladigan ko'p miqdordagi zaharli tutunlar ham havoni ifloslanishiga olib kelayotgan omillardan biri hisoblanadi [2, 3].

Namangan viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2019 yilgi ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyatida atmosfera havosini ifloslanishiga ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlarining jami soni 760 tani tashkil etadi. Shundan neft va gaz korxonalari 23 tani, energetika korxonalari 3 tani, mashinasozlik korxonalari 6 tani, metallurgiya korxonalari 2 tani, oziq-ovqat korxonalari 63 tani, paxta sanoatiga tegishli bo'lgan korxonalar 10 tani, yengil sanoatiga tegishli bo'lgan korxonalar 68 tani, transport korxonalari 241 tani, avtoyo'l tizimidagi korxonalar soni 14 tani, boshqa turdagi korxonalar soni 284 tani tashkil etadi. Namangan viloyatida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning 55,5%i qattiq zarrachalardan, 15,8%i uglerod oksidlaridan, 13,05%i uglevodorodlardan, 0,0009% esa uchuvchan organik birikmali moddalardan tashkil topganligi aniqlangan [5, 6].

1-jadvalda Namangan viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining sanoat korxonalari hamda transport vositalari tomonidan 2018-2019 yillarda atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar miqdorini shahar va tumanlar miqyosida taqsimlanishi bo'yicha

ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra, 2018 yilda ham 2019 yilda ham transport vositasidan zararli moddalarni atmosferaga chiqarish bo'yicha Namangan shahri hamda Chust, Pop va Namangan tumanlari yetakchilik qilgan bo'lsa Mingbuloq, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlari so'nggi

o'rinlarni egallagan. Sanoat korxonalari atmosferaga eng ko'p chiqindi chiqaradigan hudud sifatida esa Namangan shahri hamda Chust va Uchqo'rg'on tumanlari yetakchilik qilgan, Norin, Yangiqo'rg'on, To'raqo'rg'on va Uychi tumanlari quyi pog'onalarni egallagan (1-jadval).

*Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori shahar va tumanlar miqyosida  
(ming tonna)*

*1-jadval*


T/r	Shahar va tumanlar nomi	2018 yil			2019 yil		
		Transport	Sanoat	Jami	Transport	Sanoat	Jami
1	Namangan shahri	18,200	1,025	19,225	16,390	1,013	17,403
2	Kosonsoy	3,915	0,121	4,036	2,917	0,117	3,034
3	Mingbuloq	1,615	0,080	1,695	2,739	0,078	2,817
4	Namangan	6,385	0,118	6,503	3,842	0,109	3,951
5	Pop	7,356	0,144	7,500	4,466	0,117	4,583
6	Norin	3,546	0,020	3,569	3,866	0,016	3,882
7	To'raqo'rg'on	5,419	0,056	5,475	5,593	0,029	5,622
8	Uychi	4,196	0,060	4,256	3,649	0,060	3,709
9	Uchqo'rg'on	4,215	0,298	4,513	4,95	0,255	5,205
10	Chortoq	2,951	0,110	3,061	2,717	0,107	2,824
11	Chust	8,152	0,201	8,353	4,252	0,156	4,408
12	Yangiqo'rg'on	2,010	0,045	2,055	1,634	0,047	1,681
<b>Jami</b>		<b>67,963</b>	<b>2,278</b>	<b>70,241</b>	<b>57,015</b>	<b>2,104</b>	<b>59,119</b>

*Izoh: ushbu jadval Namangan viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, Namangan viloyatining atmosfera havosiga sanoat va transport vositalaridan 2018-2019 yillarda chiqarilgan jami zararli moddalar miqdori (shahar va tumanlar miqyosida) tahlil qilindi. Unga ko'ra ayrim hududlarda atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar miqdori 2018 yildagiga nisbatan 2019 yilda kamayib borganligini (*Namangan shahri va Kosonsoy, Namangan, Pop, Uychi, Chortoq, Chust tumanlari*), ayrim hududlarda esa ko'payib borganligini (*Mingbuloq, Norin, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on*) ko'rishimiz mumkin. Buni 1-rasmdagi 1-jadval ma'lumotlari asosida

tayyorlangan ustunsimon diagramma yordamida aniqroq ko'rib chiqish mumkin.

1-rasm ma'lumotlari yordamida yana shuni aniqlash mumkinki, Namangan viloyati bo'yicha atmosfera havosiga eng ko'p chiqindi chiqaradigan hududlarga 2018 yil bo'yicha Namangan shahri, Chust, Pop va Namangan tumanlari, 2019 yil bo'yicha Namangan shahri, To'raqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlari ajralib turgan. 2018-2019 yillarda atmosfera havosiga eng kam chiqindi chiqargan hududlar sifatida Mingbuloq va Yangiqo'rg'on tumanlarini ko'rsatish mumkin.



*I-rasm. Namangan viloyatida 2018-2019 yillarda sanoat va transport vositalaridan atmosferaga chiqarilgan jami zararli moddalar miqdori (shahar va tumanlar miqyosida).*

**XULOSA.** Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatining atmosfera havosiga ko'plab zararli chiqindi moddalar chiqarib yuborilmoqda. Ular havoni ifloslantirib, jami tirik organizmlarga, jumladan inson salomatligiga jiddiy havf tug'dirmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Namangan viloyati Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, tabiiy geografik jixatdan Farg'ona vodiysini har tarafdin tog'lar o'rab olgan. Shu bois atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar vodiyan tashqariga chiqib ketishi juda qiyin. Natijada ushbu zararli moddalar yillar davomida to'planib, uning miqdorini ortib borishi va tirik organizmlarga ta'sir doirasini kuchayib borishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda Namangan viloyat atmosfera havosini muhofaza qilish choralarini kuchaytirish lozim. Atmosfera havosining ifloslanishini oldini olish hamda uni

muhofaza qilish uchun quyidagi muhim choratadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi har bir tarmoqqa majburiy ekologik monitoring (nazorat) o'rnatish;
2. Bosqichma-bosqich chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarish sohasiga tadbir qilish;
5. Jamoatchilik transportining takomillashgan tizimini ishlab chiqish, ekologik toza transport turlari va tarmog'ini ko'paytirish (metro, tramvay, trolleybus, elektromobil va b.);
6. Odamlarning o'z shaxsiy transportlaridan emas, jamoatchilik transport vositalaridan yoki velosiped hamda elektroskuterlardan ko'proq foydalanishlari uchun rag'batlantirish;
7. Yangi uylar va jamoatchilik binolarining kam miqdordagi yoqilg'i bilan istilishi uchun qurilish me'yorlariga qat'iy talabchanlikni oshirish;

8. Alternativ energiya manbaalaridan (Quyosh, shamol, geotermal) foydalanish tizimini takomillashtirish;

9. Qishloq xo'jaligida kimyoviy zaharli vositalardan foydalanishni kamaytirish, biologik vositalardan foydalanishni kengaytirish;

10. Shahar va qishloqlarda atmosfera havosini tozalanishiga katta xissa qo'shadigan yashil maydonlarni, kichik-kichik o'rmonlarni tashkil etish va b.

Yuqoridagi chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida atmosfera havosining ifloslanishini bir necha barobarga kamaytirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Osama R. Shaltami and at all. Air pollution – A review. Virtual Conference on Environment and Health (VCEH) Venue: Agricultural University of Iceland. – 2020. – P 17-43.

2. Qoriyev M., Baxtiyorov R. Ozon qatlami, uning yemirilishi, salbiy oqibatlar va muhofaza qilish imkoniyatlari //Journal of Research and Innovation. – 2023. – T. 1. – №. 4. – С. 25-31.

3. Qoriyev M., Olimjonova M., Odilxonov A. Namangan viloyat atmosfera havosining ifloslanib borishi va uni oldini olish imkoniyatlari //Journal of Experimental Studies. – 2024. – T. 2. – №. 2. – С. 19-26.

4. WHO (2014): 7 million premature deaths annually linked to air pollution (available at <https://www.who.int/mediacentre/news/releases/2014/air-pollution/en/>).

5. Қориев М. Р. и др. Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishi //География: Природа и Общество. – 2021. – Т. 2. – №. 1.

6. Қориев М. Р. и др. Ер атмосферасининг тузулиши ва уни зарарлувчи омиллар //Студенческий Вестник Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука". – С. 68-70.